

sp

Joriy yilning sakkiz oyida 9,1 trln. so'mlik ipoteka kreditlari ajratilgan:

Banklar hisobidan: 2,3 trln. so'm

Moliya vazirligidan: 6,7 trln. so'm

Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi hisobidan: 114 mlrd. so'm

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

#67 (16520)
2022-yil, 24-sentabr
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

Yoshlar siyosati
2-bet

Inklyuziv ta'lim –
imkoniyat

Besh tashabbus olimpiadasi
5-bet

"Spark"ni So'xga
olib kelaman

Moziy
7-bet

Bir eksponat
tarixi



TALABALAR UCHUN

IJARA UY BOR!

Toshkent shahrida 1427 nafar talaba mahalladagi yoshlar yetakchilarining sa'y-harakatlari bilan turar joyga ega bo'ldi. Bunda ular "uybor.uz" platformasidan foydalanmoqda.

batafsil
4-betda

INKLYUZIV TA'LIM -IMKONIYAT

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalarida katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'sib borayotgan yosh avlodni sog'lom, har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun "Inklyuziv ta'lim" tamoyillariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Yosh-

lar ishlari agentligi direktorining 2021-yil 25-avgustdagi buyrug'iga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar Yoshlar markazlarida inklyuziv ta'lim markazlari tashkil etildi. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati boshqarmasi ham Ohangaron tumani "Yoshlar markazi"da 2021-yilning sentabr oyidan boshlab barcha imkoniyatarga ega "Inklyuziv ta'lim markazi" faoliyatini yo'lga qo'ydi.

**Otabek
G'ULOMOV,**
Yoshlar ishlari agentligining
Toshkent viloyati boshqarmasi
ijtimoiy himoyaga muhtoj
yoshlar bilan ishlash
bo'yicha mutaxassisi



Bugungi kunda "Inklyuziv ta'lim markazi"da imkoniyati cheklangan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun inklyuziv ta'lim va inklyuziv kasbiy ta'lim yo'nalishlarida bepul to'garaklar faoliyat olib bormoqda. Inklyuziv ta'lim yo'nalishida defektolog va logopedlar 82 nafar aqliy hamda ruhiy jihatdan rivojlanishda orqada qolayotgan bolalarga mashg'ulotlar tashkil etgan bo'lsa, inklyuziv kasbiy ta'lim yo'nalishida 73 nafar tayanch harakatida, eshitishida va ko'zida nuqsoni bor yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlari "Mohir qo'llar", "IT bilimdoni" kompyuter yo'nalishida, tikuvchilik va zardo'zlik bo'yicha to'garaklarda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ldilar. Markazda nutqida

nuqsoni bor bolalar bilan barmoq mashqlari bajariladi, to'g'ri talaffuzga o'rgatiladi, nafas mashqlari bajariladi, og'zaki nutqni va bog'langan nutqni rivojlantirish ustida ishlanadi.

"Inklyuziv ta'lim markazi" viloyat xalq ta'limi boshqarmasi hamda unga qarashli maxsus maktablar bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'ygan bo'lib, maxsus maktablarda ta'lim olayotgan va uyda ta'limga jalb etilgan bolalarni markazga olib kelish bo'yicha ham ishlar olib borilmoqda. Markazning vazifasi yil yakuniga qadar 250 nafardan ortiq imkoniyati cheklangan yoshlarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarga jamiyatdagi imkoniyatlardan teng foydalanishlari uchun ko'maklashishdan iboratdir.


O'QUV MARKAZLARI OCHISH UCHUN 50 MLN. SO'MGACHA SUBSIDIYA BERILADI

Bugungi kunda ilm-fanga qaratilayotgan e'tibor, ta'limga ajratilayotgan sarmoyalar juda katta. Ayniqsa, chet tillarni o'qitish tizimi yanada takomillashtirilib, chekka hududlarda xorijiy tillarni o'qitish masalasi alohida diqqat markazida turibdi.

Shu bois qishloqlarda xorijiy tillarni o'qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 50 million so'mgacha mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan bir martalik subsidiya ajratish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Mazkur tartib 2022-yil 1-oktabrdan amalga kiritiladi.

Subsidiya nodavlat ta'lim tashkilotlariga bino va o'quv xonalarini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, mebel, asbob-uskunalar, o'qitishning texnik vositalari va boshqa anjomlar bilan jihozlash, zarur darsliklar, o'quv-metodik adabiyotlar, kutubxona-axborot resurslari hamda vositalari bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini tashkil etishga jalb etiladigan pedagog kadrlar mehnatiga haq to'lash maqsadida ajratiladi.

Muxbirimiz



177 IMKONIYAT



XORIJDA ISHLAYOTGAN FUQAROLAR VA ULARNING OILALARIGA YORDAM

Prezidentimizning 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, har yili hokim yordamchilari yozma tavsiyanomasiga binoan:

- boquvchisi xorijga mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan oilalarga BHMning 2 baravari (600 ming so'm) miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi;

- mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan yoki "Temir daftar", "Ayollar daftar" va "Yoshlar daftar"dan biriga kiritilgan, nogironligi bo'lgan oila a'zolariga dori-darmon, nogironlik aravachalari, eshitish apparatlari va ortopedik mahsulotlar xarid qilish uchun BHMning 5 baravari miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi;

- mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning O'zbekistonda ular bilan birga yashovchi pensiya yoshiga yetgan yoki I va II guruh nogironligi bo'lgan oila a'zolariga kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriy va profilaktik davolanish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanma beriladi.

Shuningdek, mahallalardagi yoshlar yetakchilarining yozma tavsiyanomasiga asosan, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan yoki "daftarlar"dan biriga kiritilgan hamda mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning bolalariga mavsumiy faoliyat yuritadigan oromgohlarga bepul yo'llanmalar beriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

Yordam pullari va yo'llanmalarni olish uchun talabgorlar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga "Labor migration" dasturiy majmuasi orqali elektron tarzda murojaat qiladi.

YOSHLAR

ISTALGAN VAZIRLIK VA IDORALARDA STIPENDIYALI STAJIROVKA O'TASH MUMKIN

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 4-avgust kuni o'tkazilgan video-selektor yig'ilishida davlat organlarida stajirovka o'tagan qobiliyatli bitiruvchi yoshlarni davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilishga qaratilgan "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi"ni e'lon qilish vazifasi belgilangan edi.

"Yoshlar ovozi" muxbiri
Shahruza SATTOROVA tayyorladi.

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda "Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturi" ishlab chiqildi. Dastur O'zbekiston Respublikasidagi barcha vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan "Yosh mutaxassislarni tanlash" namunaviy dasturi oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchi kursida o'qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish, ularning stajirovkasini tashkil etish va keyinchalik zaxiraga kiritish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

DASTURDAN MAQSAD NIMA?

Davlat xizmatiga eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish dasturning asosiy maqsadlari etib belgilangan. Bular sirasiga OTM bitiruvchilarini davlat xizmatiga jalb qilish samaradorligini oshirish ham kiradi.

Dasturga oliy ta'lim muassasalari hamda davlat xizmati o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish, eng salohiyatli va bilimli bitiruvchilarni seleksiya qilish, nomzodlarni vazirlik va idoralarga, mahalliy hokimliklarga stajirovka o'tash uchun yo'naltirish hamda "ustoz-shogird" an'anasida asosida tajribali ustoz-mentorlarga birlashtirish, stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni tanlov (suhbat) asosida davlat xizmatiga ishga qabul qilish kabi vazifalar yuklatilgan.

QANDAY TANLAB OLINADI?

"Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" amalga oshirish tartibi bo'yicha tegishli bosqichlarda va belgilangan muddatlarda bo'lib o'tadi. Avvalo, davlat organlarining rasmiy sahifalarida "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha stajirovka tanlovi haqida e'lon beriladi va targ'ibot ishlari amalga oshiriladi.

Stajirovka tanlovida ishtirok etish uchun arizalar onlayn shaklda (telegram bot orqali) qabul qilinadi. So'ngra texnik talablarga muvofiq, ariza egalriga saralash bosqichida ishtirok etishga yo'llanma yuboriladi.

Keyingi bosqichda nomzodlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik, davlat tili, axborot texnologiyalari bo'yicha bilim darajasini aniqlash uchun tegishli davlat organlari tomonidan tashkil etiladigan maxsus test sinovidan o'tadilar. Test sinovlari bazasi Yoshlar ishlari agent-

ligi buyurtmasiga binonan ushbu tashkilot mablag'lari hisobidan Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan ishlab chiqiladi. Test bosqichi davlat organi bilan hamkorlik qilayotgan OTMlarning maxsus kompyuter xonalarida o'tkaziladi.

Tanlov jarayonlari Yoshlar ishlari agentligi

tomonidan muvofiqlashtiriladi. Test bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan (71 foizdan yuqori natija ko'rsatgan) nomzodlar tegishli davlat organlarida tuzilgan maxsus komissiya tomonidan suhbatdan o'tkaziladi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarni stajirovkaga qabul qilish haqida davlat organlarining buyrug'i chiqariladi. Stajirovka jarayonini namunali yakunlagan yosh mutaxassislar stajirovka o'tagan davlat organlarining kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

STAJIROVKANI O'TASH TARTIBI QANDAY?

Ushbu stajirovka uch bosqichga: tayyorlov, asosiy, hisobotlarni topshirish va baholash jarayonlariga bo'linadi. Stajirovka tayyorlov bosqichining birinchi kunida davlat fuqarolik xizmatidagi stajirovka rahbari tomonidan yig'ilish o'tkaziladi.

Yig'ilishda talabalar stajirovkani o'tash dasturi bilan tanishadilar, uning maqsad va vazifalariga taalluqli ko'rsatmalar, stajirovkani o'tash va hisobot shaklini to'ldirish tartibi haqida xabardor qilinadi. Stajirovka o'tashning boshida talabalar qabul qiluvchi tashkilotning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, o'ziga xosligi bilan tanishadilar hamda stajirovka rahbari va birlashtirilgan ustoz-mentor bilan birgalikda stajirovka o'tash dasturini bajarish bo'yicha shaxsiy ish reja jadvalini tuzadilar. Stajirovkaning asosiy bosqichida bitiruvchi bevosita stajirovka o'tash dasturini bajarish bo'yicha shaxsiy ish rejada ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajaradi.

Yakunlar bo'yicha hisobotni topshirish so'nggi bosqich hisoblanadi. Belgilangan tartibdagi hisobot-taqdimot stajirovka rahbari, ustoz-mentor va Yoshlar ishlari agentligi vakili tomonidan baholanib tasdiqlanadi. Stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilar davlat organlari hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tas-



diqlangan sertifikat bilan taqdirlanadi. Bu sertifikat esa bitiruvchilarga davlat xizmatiga ishga qabul qilishda imtiyozni nazarda tutadi.

STAJIROVKA O'TALDI, ENDI ISH NAQDMI?

Davlat organlari tomonidan oltinchi darajali davlat xizmatchilari (mutaxassis) vakant shtat birliklarining o'n foizdan kam bo'lmagan miqdorida yosh mutaxassislar uchun lavozimlar ro'yxati shakllantiriladi. Ro'yxatdagi lavozimlar uchun bitiruvchilarga alohida malaka talablari ishlab chiqiladi. Dastur asosida stajirovkani muvaffaqiyatli tamomlagan, sertifikatga ega bitiruvchilar davlat organlaridagi maxsus komissiya tomonidan o'tkaziladigan suhbat asosida ishga qabul qilinadi. Dastur bo'yicha stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga tegishli davlat organlari tomonidan (davlat organlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan) bir barobardan uch barobargacha miqdorda stipendiyalar beriladi.



Prezidentimiz tashabbusi bilan endilikda Toshkent viloyatidagi har bir fuqaro bir marta yangi qurilgan xonadonni imtiyozli ipotekaga olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu munosabat bilan kelgusi yildan "Mening birinchi uyim" yangi ipoteka dasturi Toshkent viloyatidan boshlanadi.


“
STAJIROVKA JARAYONINI
NAMUNALI YAKUNLAGAN
YOSH MUTAXASSISLAR
STAJIROVKA O'TAGAN DAVLAT
ORGANLARINING KADRLAR
ZAXIRASIGA KIRITILADI.

TALABALAR UCHUN IJARA UY BOR!

O'quv yili boshlanishi bilan poytaxtda qator ijtimoiy muammolar kuzatilmoqda. Ular orasida eng dolzarbi, shubhasiz, talabalar uchun turar joy muammosi. Bu masalani hal etishda mahalladagi yoshlar yetakchilari ham jonbozlik ko'rsatmoqda.

Toshkent shahriga o'qish istagida kelib, turar joy qidirgan 1427 nafar talaba mahalladagi yoshlar yetakchilarining sa'y-harakatlari bilan turar joyga ega bo'ldi. Bunda ular "uybor.uz" platformasidan foydalanmoqda.

Yashnobod tumanidagi "Barkamol" mahallasi yoshlar yetakchisi Asadbek Yakupbayev 16 nafar talabani ijara uyga joylashtirishga ko'maklashdi. U bu borada "uybor.uz" platformasi orqali talabalarga xabar bergan. Shubhasiz, mahallasidan joy bergan yoshlarning nazoratini ham o'z zimmasiga olgan. Bu yo'lda qator muammolarga duch kelgan qahramonimiz masalani qay tarzda hal etdi?



Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Asadbek YAKUPBAYEV,

Yashnobod tumanidagi "Barkamol" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Sentabr oyi boshida rahbariyat tomonidan talabalarni ijara asosida turar joy bilan ta'minlashda "uybor.uz" internet sayti bilan hamkorlikda amaliy yordam ko'rsatilishi yuzasidan topshiriq berilgach, avvalo, platformaga bizning hudud-dan qo'yilgan uylarning ro'yxatini tuzdim. Keyin o'sha xonadonlar egasiga qo'ng'iroq qilib, bir nechta-sini talabalarni joylashtirishga ko'ndirdim. Ko'pincha uy egalari talabalarni, ayniqsa, talaba yigitlarni qo'yishni istashmaydi. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Men esa ularning nazoratini o'z zimmasiga olishga va'da berib, 16 nafar talabani mahallamizdagi uylarga joylashtirdim. Bu shunchaki va'da bo'lib qolmadi. Ularni mahallamiz inspektori leytenant Sirojiddin Bo'riboyev bilan tanishtirib, vaqtinchalik ro'yxatga ham qo'ydik. Mahalla inspektori bilan birgalikda tartib-qoidalar o'rnatdik. Unga ko'ra, talabalarga qo'shnilar bilan ahil va inoq bo'lib yashash, xonadonni ozoda tutish,

uy yo'laklarini ham tozalab turishga kelishib oldik.

Har doim ishga kelib-ketishimda ulardan xabar olaman, muammolarini so'rab turaman. Bu talabalarning hammasi o'qishdan bo'sh vaqtida ishlash niyatini borligini aytdi. Men ularni mahallamiz atrofidagi kafe va restoranlarga ishga joylashtirdim. Shu paytga qadar ular ustidan birorta ham shikoyat tushmadi. Bundan keyin ham shunday bo'lishiga ishonaman. Shu kunlarda yana bir nechta xonadonga talabalarni joylash niyatim bor.

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Buyuk ipak yo'li" mahallasi yoshlar yetakchisi Abdulatif Abdullayev ham shu paytga qadar o'z mahallasidagi xonadonlarga 18 nafar talabani joylashtirdi. Ayni paytda mahallada navbatdagi xatlov jarayoni olib borilayotgan bo'lib, bunda Abdulatif mahalladagi ijara beriladigan uylarning ham ro'yxatini tuzib, bu uylarni "uybor.uz" platformasiga joylashtirmoqda.

Abdulatif ABDULLAYEV,

Mirzo Ulug'bek tumanidagi "Buyuk ipak yo'li" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Mahallamizdagi uybohililar bilan suhbatlashib, ijara beriladigan uy egalari talabalarni ijara asosida uyga qo'yishga ko'ndirdim. Bu haqida "uybor.uz"ga e'lon berishimiz bilan sanoqsiz qo'ng'iroqlar bo'ldi. Ayrimlari telefon ham qilib o'tirmasdan yukini ko'tarib kelib olishdi. Ular bir necha kundan buyon ko'cha-ko'yda yotib yurishgan ekan. Shu kunning o'zida ularni uylarga joylashtirdim.

Ochig'i, bunga ko'pchilik qo'ni-qo'shnilar qarshilik qilishdi. "Talabalar betartib, intizomsiz bo'ldi. Xohlagan vaqti kelib ketadi. Yana har kimni boshlab kelaveradi", deyishdi. Men qo'shnilar bilan murosaga kelish uchun talabalarning xatti-harakatlariga o'zim javob berishimni aytdim. Shu talabalar o'rnida sizni bolangiz bo'lsa, nima qilardingiz, deb so'radim. Musofirlarga ko'mak berish yaxshi amallardan, deb tushuntirdim.

Shunda qo'shnilar vaziyat haqiqatdan ham og'ir ekanini bilib, hech qanday shartlarsiz rozi bo'lishdi. Hozirgacha 18 talabani joylashtirdik. Ular ko'ngilli volontyor bo'lib menga kundalik xatlovlarda ham "Besh tashabbus olimpiadasini o'tkazishda ham yordamlashmoqda. Kuni kecha milliy kurash musobaqasida 4 nafar talaba-yosh o'z vazn toifasi bo'yicha ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Boshqalar kitobxonlik musobaqasida qatnashib, yuqori ball to'pladi. Ular yana mahallamiz bolalari bilan kechki payt futbol o'ynashga chiqadi.

"Talabalar uchun ijara turar joy bor". Mahalladagi yoshlar yetakchilarining tashabbusi bilan bunday e'lonlar ko'zga tez-tez tashlanmoqda. Bunda "Tong" mahallasi yoshlar yetakchisining ham hissasi bor.

Dilshod SAIPOV,

Yashnobod tumanidagi "Tong" mahallasi yoshlar yetakchisi:

— Mahallamda bo'sh xonadonlar kamligi bois, asosan, yolg'iz keksa onaxonlarning uyiga kirib, yoniga bir-ikkita qizlarni ijara olishni tavsiya qilдим. Ularning ko'pchiligiga bu taklif ma'qul bo'ldi. Shu tarzda 8 nafar qizni uy egasining yoniga foydalanilmayotgan xonalarga ijara qo'ydim. Yaxshi tomoni, bu ham keksalarga yordam, ham talabalar doimiy nazoratda bo'ladir. Yana 16 nafar talaba yigitni ham joylashtirdim. Shu kunning o'zida ularni vaqtinchalik ro'yxatga olib, ijara shartnomasini ham tuzdik. Endi ularga ta'lim olayotgan oliy ta'lim muassasalari ijara pulining ma'lum qismini qoplab beradigan bo'lyapti. Buni ham o'z nazoratiga olganman. Chunki talabalarga javobgar bo'lganim uchun uylarni ijara bergan xonadon egalari ijara pulini ham mendan so'rashi, o'z vaqtida bermasa, menga arz qilishi tabiiy hol. Shu boisdan ishlash istagini bildirgan ijarachi talaba qizlarni atrofimizdagi tikuv seklari, yigitlarni esa kafe-restoranlarga ishga joylab qo'yanman.

Ular darsdan bo'sh vaqtlari o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'ladigan mablag'ni ishlab topmoqda. Shu paytga qadar bizning mahallamizdan 24 nafar talaba qo'nim topdi. Bu raqamni ko'paytirish harakatidaman.

Garchi talabalarni uyli-joyli qilish yoshlar yetakchilari zimmasiga yuklatilmagan bo'lsa-da, ular "yoshlarning muammosi bizning muammomiz" qabilida ish tutmoqda. Bu borada qilinayotgan ishlar tahsiga sazovor.





Sharh

PREZIDENT QARORI BILAN

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI OSHIRISH BO'YICHA QATOR IMTIYOZLAR BERILMOQDA

Kuni kecha Prezidentimizning "Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatga ko'ra, 2022-yil 1-oktabrdan boshlab xotin-qizlarga kasanachilik sohasida bir qator imtiyozlar beriladi.

Kasanachilikning, ayniqsa, qishloq joylarda uy-ro'zg'or ishlari, oilada bola tarbiyasi bilan band bo'lgan va yordamchi daromadga muhtoj ayollar uchun juda ahamiyatlidir. Shu bilan birga, bu faoliyatga imkoniyati cheklangan xotin-qizlarni ham jalb etish mumkin.

Albatta, aholini ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilishning samarali vositalaridan biri bo'lgan kasanachilikni yanada rivojlantirish hamda zamonaviy mashina, asbob-uskunalar, xomashyo va materiallarni xarid qilish uchun moliyaviy resurslar talab qilinadi. Shu bois qarorda kasanachiga zarur asbob-uskuna xarid qilish uchun tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan subsidiya miqdorini amaldagi **bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha oshirish ko'zda tutilgan.**

Kerakli asbob-uskunalar xarid qilingach faoliyatni yanada kengaytirish uchun joy masalasi ham muammoga aylana boshlaydi, ijara narxlari esa osmonda. Shuning uchun qarorda "Ayollar daftari"ga kiritilgan kamida 5 nafar ishsiz xotin-qizni kasanachilik asosida ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari davlat mulkidagi bino va inshootlarni ijaraga olganda ijara haqi 50 foiz miqdordagi undiriladi. Agar tadbirkorlik subyektlari xodimlari umumiy sonining kamida 70 foizi "Ayollar daftari"ga kiritilgan bo'lsa, shuningdek, imtiyoz berilgan davra ishchilarning bandligini saqlab qolsa, bu tadbirkorlar davlat mulkidagi bino va inshootlar uchun **2027-yil 1-oktabrga qadar ijara haqi to'lovidan ozod etiladi.**

Qarorda yangi ish boshlayotgan kasanachilar faoliyatini yo'lga qo'yish, yanada rivojlantirish uchun xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida lider kasanachilarni jalb etgan holda o'quv kurslari tashkil etilishi ham aytib o'tilgan. Bu o'quv kurslari Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan o'tkaziladi.

Bundan tashqari, kasanachilik faoliyatini yo'lga qo'yib, olis va chekka hududlardagi mahallalarda kamida 20 nafar ehtiyojmand xotin-qizni kasanachilik asosida ish bilan ta'minlagan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida hududlarda har yili bir marotaba qiymati **50 million so'm bo'lgan loyihalar tanlovi o'tkaziladi.**

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

PARVARISHLASH NAFAQASI

Parvarishga muhtoj nogironligi bor 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo'lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda 500 ming so'm miqdorida nafaqa to'lovi (parvarishlash nafaqasi) joriy etilgan.

"SPARK"NI SO'XGA OLIB KELAMAN"



Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Respublikamizdagi barcha mahallalarda "Besh tashabbus olimpiadasi"ning sport bahslari yakuniga yetdi. Ayni kunlarda "Yosh kitobxon" tanlovining mahalla bosqichi davom etmoqda. "Yosh kitobxon" tanloviga qiziqish bu yil har yilgidan yuqori.

So'x tumanidagi "Sarikanda" mahallasi-da ham 10-14, 15-19 va 20-30 yosh toifasidagi yoshlar o'rtasida tanlovning mahalla bosqichi o'tkazildi. Unda jami 98 nafar o'g'il-qiz ishtirok etdi. Qiziqarli savollar, kitob bilimdonlari yig'ilgan musobaqada bahslar qizg'in kechdi.

Tanlovning mahalla bosqichi yakuniga ko'ra, 10-14 yosh toifasida Zinnura Najmiddinova, 15-19 yosh toifasida Samandar Erkinjonov, 20-30 yosh toifasida Hokimjon Hoshimjonov yuqori ball olib, tanlovning sektor bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

15-19 yosh toifasida sektor bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritgan Samandar Erkinjonov avvalgi yillarda ham "Yosh kitobxon" tanlovida ishtirok etgan va viloyat bosqichiga qadar yetib borgan edi. Bu mavsum tanlovga katta ishtiyok va o'zgaracha tayyorgarlik ko'rgan Samandarning niyati jiddiy.

- 2018-2020-yillarda "Yosh kitobxon" tanlovining *Farqona viloyati bosqichiga ketma-ket 3 yil yetib keldim, - deydi Samandar Erkinjonov.* - Biroq o'tgan yili abituriyentligim sabab tanlovda qatnasha olmadim. Bu yil esa mahallamiz yoshlar yetakchisi Hayitboy aka Hasanov men bilan bog'lanib, tanlovda ishtirok etishimni taklif qildi. Kitobga mehrim

boshqacha bo'lganligi sababli "labbay" deb javob berdim. Va mahalla bosqichida 15-19 yosh toifasidagilar orasida 1-o'rinni egalladim. Ishonamanki, tanlovdan qimmatli tajriba va bilimlar olaman. Maqsadim respublika bosqichida g'alaba qozonib, "Prezident sovg'asi"ni so'xga olib kelish.

"Yosh kitobxon" tanlovi barchani birdek qamrab oldi, barchaga imkoniyat berdi. 20-30 yosh toifasida mahalla bosqichida g'olib bo'lgan **Hokimjon Hoshimjonov imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay, kitoblarni sevim mutolaa qiladi.** Il guruh nogironi bo'lsa ham Hokimjon tushkunlikka tushmaydi. Kitoblarni uning eng yaqin do'sti. U o'zining uyidagi mo'jazzina kutubxonasidagi "do'stlari" bilan "sirlashadi", fikrlarini "ortoqlashadi".

- "Yosh kitobxon" tanlovini bilardim, biroq shu paytgacha ishtirok etmaganman, - **deydi sarikandalik Hokimjon Hoshimjonov.**

- Bu yil yoshlar yetakchisi men bilan bog'lanib, tanlovda ishtirok etish taklifini bildirdi. Kitobga qiziqishim baland, bo'sh vaqt topdim deguncha badiiy asarlar o'qiyman. Shuning uchun asarlar ro'yxatini yetakchidan olib, o'qishni boshlagandim va mana mahalla bosqichida 1-o'rinni oldim. Xudo xohlasa, buyog'iga shunday davom etaman.

Odamlar yigit odatidan ma'lum deganlaridek, "Sarikanda" mahallasi yoshlar yetakchisi Hayitboy Hasanov ham kitob o'qishni odat qilgan. Shuning uchun mahalla yoshlarini ham o'z ortidan ergashtira olmoqda.



GLOSSOFOBIIYA

YOXUD O'QUVCHI-TALABALAR IMTIHONDA
AYTMOQCHI BO'LGAN GAPLARINI
NEGA UNUTIB QO'YADI?

Ziyoda RAHIMBOYEVA
tayyorladi.

Dunyo kezishni yoqtiruvchi shahzoda va malika haqidagi ertakni eshitganmisiz? Butun dunyo bo'ylab hech qanday muammosi yo'q insonni izlab, sarson bo'lgan bu juftlik bunday insonni topa olmagan haqidagi voqea sizni ham qiziqtirib qo'ysa, ajab emas.

Demoqchimizki, bu hayotda hamma-ning o'ziga yarasha muammolari bor va ko'p vaqtimiz ularni o'ylash, yechim izlash bilan o'tadi. Shu sabab maqolamizda siz duch kelayotgan yoki duch kelishingiz mumkin bo'lgan muammolar haqida mulohaza yuritamiz, birgalikda yechim izlaymiz va topamiz!

Aksariyat insonlarda o'smirlik davrida shakllanib, umrbod saqlanib qoladigan odat, bu - ko'pchilik orasida nutq so'zlash yoki o'z fikrini bildirishdan qo'rquv hissi. Fanda glossofobiya deb nomlanuvchi ushbu g'alati kasallikdan yer yuzi aholisining **75 foizi aziyat chekadi**. Tennessi universiteti olimlari tadqiqoticha, bu kasallik asosan yoshlar, talabalar, maktab o'quvchilarida ko'proq ko'zga tashlanadi.

Ustozingiz bergan savolga javob berishga qiynalganingiz, ancha vaqt tayyorlagan ma'ruzangizni ko'ngildagidek topshira olmaganingiz ko'z oldingizga keldimi?! Bu tabiiy va ayni paytda bartaraf etish mumkin bo'lgan holatdir.

Yechim sari ilk qadamni 'tasavvur qilish'dan boshlang. Nutq so'zlashdan avval muvaffaqiyatli ma'ruza o'tkazganingizni ko'z oldingizga keltiring va buni haqiqatdek qabul qiling. Keyingi qadamda sizga ko'zgu yordam beradi. **Yarim soat ko'zga qarshisida qilingan ma'ruza, omma oldidagi ma'ruzangiz muvaffaqiyatli chiqishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.**

Quyidagi misol ham sizga yaxshigina motivatsiya berishiga ishonamiz!

Qadimdan asosan Yunoniston va Rimda maxsus notiqlik maktablari bo'lib, bu yerda ta'lim olish deyarli har bir yigit-qizning orzusi hisoblangan. Bizga buyuk notiq sifatida yaxshi tanish bo'lgan Demosfenning yuksak natijaga erishishida esa qiziqish emas, ko'proq mo'l-davlatga o'ch qarindoshining hissasi kattaroq edi. Bo'lajak notiq 5 yoshga to'lganida otasidan ayriladi va singlisi ikkisiga undan juda katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi tog'asi hamma boyliklarni qo'lga kiritgach jyanlarining taqdiri bilan qiziqmay qo'yadi. Shu sabab Demosfen juda nimjon va kasalmand bo'lib o'sadi.

Jiyani voyaga yetgach tog'asi unga faqat qullari, uy va uy jihoz-



larini hamda pulning ma'lum qisminigina berib aldamoqchi bo'ladi. Demosfen tog'asidan qolgan mo'l-mulkni yaxshilikcha qaytarib berishini so'raydi. Tog'a esa bundan bosh tortadi, natijada Demosfenda qolgan merosni sud orqali undirishdan boshqa chora qolmaydi. Biroq muammo shunda ediki, sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afinaning davlat qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga, ravon so'zlab, da'vosining to'g'riligiga kishilarni ishonтира olish shart edi. Shu sababli Demosfen notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrining meros ishlari bo'yicha mashhur advokati Isey maktabida ta'lim olishga majbur bo'ladi. Bu **ta'lim natijasida u nafaqat sudga g'alaba qozondi, yillar o'tib nomi tarix kitoblariga yozildi.**

Ko'rib turganingizdek, maqsad bo'lsa bas, har qanday muammo yoki kamchiligingizni bartaraf etishingiz mumkin. Shu o'rinda hatto glossofobiyani ham!

Yoshlar duch kelishi mumkin bo'lgan muammolardan yana biri sifatida diqqatni jamlay olmaslikni misol qila olamiz. Bir qarashda oddiydek ko'ringan bo' holatdan ko'pchilik yoshlar, ayniqsa, talabalar aziyat chekadi. Imtihon oldi tayyorgarlik, dars vaqtida diqqatni to'plash juda muhim, ammo ba'zi salbiy



odatlarimiz sabab shu kabi muammoga ko'p duch kelayotgan bo'lishimiz mumkin.

Masalan, musiqa eshitib dars tayyorlash yoki dars qilish vaqtida boshqa narsalarga chalg'ish. Bunda diqqatning ikkiga bo'linadi, ortiqcha zo'riqish bora-bora doimiy holga aylanadi. Yana sabablardan biri ovqatlanish ratsionida bo'lishi mumkin. Gazlangan yoki energetik ichimliklarni ko'p miqdorda ichish diqqatning tez bo'linishiga olib keladi. Kunlik iste'mol mahsulotlaringiz orasida qora shokolad, avokado, yong'oc, zig'ir urug'i va ko'k choyning bo'lishi muammoning oldini olish va bartaraf etishda yordam bera oladi.

Xotiraning pastligi - manzil, telefon raqam yoki odamlarning ismlarini eslab qololmaslik yoki tez unutib yuborish kabi muammoli vaziyatlar ko'pincha keksayish va inson organizmining to'liqishi davrida ko'p kuzatiladi. Ammo bu so'nggi vaqtlar yoshlar orasida ham tez-tez uchrab turgani biron xavotirli.

Shiddatli davrida axborot texnologiyalari, turi gadgetlarga mukasidan ketish bir qancha kasalliklarga, shu bilan birga, xotiraning pasayib ketishiga ham sabab bo'lmoqda.

“
YOSHLAR DUCH KELISHI
MUMKIN BO'LGAN
MUAMMOLARDAN YANA
BIRI DIQQATNI JAMLAY
OLMASLIKDIR.

Telefon yoki kompyuterdan tarqaladigan zararli to'lqinlar miyamiz faoliyatiga jiddiy zarar yetkazayotgani olib borilgan tadqiqotlarda ham ko'p bor isbotlandi.

Buni bartaraf etish mumkin, agar sizda xohish bo'lsa, yana avvalgidek xotirangizni mustahkamlab, eslash qobiliyatingizni yaxshilashingiz mumkin. Inson miyasi tana og'irligining atigi 2 foizini tashkil qiladi, biroq shunisi ahamiyatli, qabul qilinayotgan kislorod va ozuqalarning 20 foizini iste'mol qiladi. Demak, to'g'ri va o'z vaqtida, me'yorida ovqatlanish nafaqat qomat, balki miya faoliyati uchun ham katta ahamiyatga ega.

Kun davomida ochiq havoda piyoda sayr qilish ham juda foydali. Ayniqsa, o'qish va ma'lumotlarni qabul qilishdan charchagan paytda yoki og'ir ish kuni oldidan bu usul aqil faoliyatimiz uchun ijobiy natija ko'rsatadi. Eslab qolish qobiliyatini yanada rivojlantirishning xalqona usullaridan biri mayiz, yong'oc, asal, sut mahsulotlarini muntazam iste'mol qilishdir. Bunda organizm uchun zarur bo'lgan vitaminlarning 70 foizini qo'lga kiritish bo'lami.

Aziz tengdoshlar, siz duch kelayotgan muammolarga atrofingizdagilar ham uchragan va uni yengib o'tgan bo'lishlari mumkin. Shunday ekan, buni aytishdan, yordam so'rashdan aslo uyalmang.

“
**INSON MIYASI TANA OG'IRLIGINING ATIGI
2 FOIZINI TASHKIL QILADI, BIROQ SHUNISI
AHAMIYATLI, QABUL QILINAYOTGAN KISLOROD
VA OZUQALARNING 20 FOIZINI ISTE'MOL QILADI.
DEMAK, TO'G'RI VA O'Z VAQTIDA, ME'YORIDA
OVQATLANISH NAFAQAT QOMAT, BALKI MIYA
FAOLIYATI UCHUN HAM KATTA AHAMIYATGA EGA.**

BIR EKSPONAT TARIXI

QATAG'ON DAVRI LAGERLARI YOXUD AYBSIZ QAMALGANLARNING BORSAKELMAS JOYLARDAGI TAQDIRI

Muhtarama KOMILOVA.

O'ZA



Tariximizdan ma'lumki, mustabid tuzum davrida qatag'on, "quloqlashtirish", surgun siyosati oqibatida yurtimizning milliy taraqqiyoti yo'lida kurashgan minglab fidoyi farzandlari qatag'onga uchradi. Ularga shafqatsizlaracha munosabatda bo'linib, son-sanoqsiz yurtdoshlarimiz sovuq o'lkalarga surgun qilindi.

Ko'plab millatparvar, ziyoli vatandoshlarimiz o'zga yurtlarda og'ir sharoitdagi qamoqxona va lagerlarda ming azob-uqubatlarga duchor bo'ldi. Ularning ayrimlarigina qamoq muddati tugaganidan so'ng kasalmand, yarim jon holatda uyiga qaytishgan bo'lsa, ko'pchiligi begona yurtlarda qiynoq, kasallik va ochlik azobidan jon taslim qilgan.

Toshkent shahridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyida uzoq o'lkalardagi qamoqxona va lagerlarning ko'rinishi, shart-sharoitini o'zida mujassam qiladigan ekspozitsiya namoyish etilgan. U haqda batafsil ma'lumot olish uchun muzey xodimiga yuzlandik.

— O'sha mash'um "Katta qirg'in" davrida juda ko'plab qamoqxonalarni qurilgan, — deydi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi bo'lim boshlig'i Aziza Ahrorova. — Muzeyimizdan o'rin olgan ushbu ekspонат "Perm-36" qamoqxonasining maketi hisoblanadi. O'zbekistonlik mahbuslar saqlangan uchun aynan ushbu qamoqxona maketi namoyishga qo'yilgan. Oq fonda aks ettirilganining sababi qamoqxonalarning barchasi sovuq o'lkalarda, og'ir sharoitli hududlarda joylashgan. Qolaversa, mahbuslardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish maqsadida ular shaxtalariga, o'rmonzorlarga yaqin joylarda barpo etilgan.

Barcha lagerlar 3 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda mahbuslar mehnat qilgan, ikkinchi qismi qamoqxona, uchinchi qismi esa tibbiyot markazi bo'lgan. Lekin tibbiyot markazining eshigi ramziy ma'noda yopib qo'yilgan. Chunki bu yerda kasal bo'lgan mahbuslarga tibbiy jihatdan yordam ko'rsatilmagan.

Qamoqxonalarning atrofi 4 qismli devor bilan o'ralgan. Ikkinchi devordan elektr toki o'tkazilgan, bu yerdan qochib chiqishning umuman iloji bo'lmagan. Mahbuslar o'lsa, shu yerning o'zida qolib ketavergan.

Ko'pgina o'zbekistonlik mahbuslar juda qattiq sovuq oqibatida turli og'ir kasalliklarga duchor bo'lib, vafot etgani haqida ma'lumotlar bor. Masalan, ma'lumotlarga ko'ra, Usmon Nosir ham xuddi shunaqa sovuq hududlardagi lagerga qamalgan. Qattiq sovuq oqibatida oyoq-qo'li ishlamay, vafot etgan. Fizika, kimyo fan o'qituv-

chisi, ziyoli yurtdoshimiz Husaynxon Niyoziy ham Magadandagi lagerda o'pka kasalligidan vafot etgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Lagerlarning suratlaridan ko'rishimiz mumkin, u yerlardan odam skeleti, suyaklari ko'p topilgan. Chunki o'lgan mahbuslar o'sha yerda ko'milgan yoki o'z holicha qolib ketavergan. Masalan, Kalima lagerida ham odam skeleti suyaklari shundayligicha saqlanib qolgan, — deydi suhbatdoshimiz.

Borsakelmas, sovuq o'lkalarga surgun qilingan, og'ir sharoitlardagi lagerlarda qiynoq va azobda yashagan minglab vatandoshlarimiz ulkan maton va iroda, qahramonlik namunasidir. Millat taraqqiyoti yo'lida kurashgan aybsiz aybdorlarning ayanchli taqdiri barchamizni bugungi tinch-oyanish taqdiriga qadriga yetishga undaydi.

Tariximizdagi qora sahifalarning asl ko'rinishi aks etgan ushbu ekspонатlar har bir tomoshabin qalbidagi, ayniqsa, yoshlarimiz ong-u shuurida ajdodlarimizga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg'usini uyg'otishi shubhasiz.



Nazokat Abduqunduzova,

Innovatsion rivojlanish vazirligi matbuot xizmati rahbari

Bugungi texnologik taraqqiyotda intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda, davlatning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini belgilab bermoqda.

Xo'sh, intellektual mulk o'zi nima?

Mazkur savol yuzasidan **Innovatsion rivojlanish vazirligi matbuot xizmati rahbari Nazokat Abduqunduzova** O'ZA muxbiriga quyidagilarni ma'lum qiladi.

— Intellektual mulk inson tomonidan yaratiladigan ijodiy-aqliy faoliyat mahsulati bo'lib, iqtisodiyot rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk rivojiga katta e'tibor qaratilgani sababli ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, intellektual mulkning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keskin ortgan.

Fuqarolik huquqi tarkibidagi "intellektual mulk" huquqi — ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari, inson ijodiy faoliyati va uning maqsadlaridan foydalanishni, mutlaq huquqlarni muhofaza qilish hamda g'oyat keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Intellektual mulk sohasidagi qonunchilikda belgilangan tartibga ko'ra, tovar belgilari va firma nomlaridan noqonuniy foydalangan shaxslar BHMning 100 baravaridan 200 baravarigacha (27 million so'mdan 54 million so'mgacha) miqdorda jarimaga tortiladi. Qolaversa, endi barcha yuridik va jismoniy shaxslar o'z nomiga tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishi mumkin.

INTELLEKTUAL MULK MUHOFAZASI TA'MINLANGANMI?

Shuningdek, "Intellektual mulk obyektlari to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonunga ko'ra, tegishli patentlangan sanoat mulki obyektlarini o'z ichiga olgan mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo'sinda kiritish kabi harakatlarni sodir etgan yuridik shaxslarga BHMning 100 baravaridan 200 baravarigacha jarima solinishi mumkin.

Jarimalar miqdorlari huquqbuzarliklarning har bir turi bo'yicha alohida belgilanadi. Jarima summasi miqdorining 70 foizi huquqbuzar tomonidan bir oy ichida ixtiyoriy ravishda to'langan taqdirda huquqbuzar jarimani o'z qo'liga qolgan summasini to'lashdan ozod etiladi. Intellektual mulkdan faqat egasi emas, jamiyat ham foyda oladi.

JARIMALAR MIQDORLARI HUQUQBUZARLIK LARNING HAR BIR TURI BO'YICHA ALOHIDA BELGILANADI.

O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi" qonunning 35-moddasiga ko'ra, mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin ellik yil davomida amal qiladi.

Bugungi kunda intellektual mulk hamda innovatsiya respublika milliy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun suv va havoday zarur sohalarga aylangan. Bu ikki tizimni bir-birining ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'ZA muxbiri

Muhayyo TOSHQORAYEVA
yozib oldi

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Asliddinxo'ja Xotamov bolaligidan multfilm qahramonlari rasmini chizishga, yangicha obrazlar yaratishga qiziqar edi. 3-sinfigida asfaltga rasm chizish bo'yicha tanlovda 1-o'rinni egallagani hayotining o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Ota-onasi undagi qiziqishning shunchaki emasligini tushunib, 9-sonli bolalar musiqa va san'at maktabiga berishdi. Bilimlarini yanada mustahkamlash maqsadida Andijon san'at kollejining dastgohli rangtasvir yo'nalishida o'qidi. Bu yerdagi muhitda mahorati oshib boraverdi, ko'plab do'stlar ortirdi, turli ko'rik-tanlovlarni g'olibi bo'ldi. San'atga muhabbati sabab, shu yo'nalishdagi oliy o'quv yurtida ham o'qishni niyat qildi.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi yo'nalishini tanladi.

Loyiha muallifi:
Shahribonu RAHMATOVA



Asliddinxo'ja XOTAMOV,
Kamoliddin Behzod nomidagi
milliy rassomlik va dizayn
instituti talabasi

– O'zbekistonda multfilm sanoati meni tashvishga soladi. Shu sabab bu sohani rivojlantirib, chet eldagi mashhur kompaniyalar bilan bema'lol bahslashga oladigan darajaga olib chiqish niyatidaman, – deydi Asliddinxo'ja.



Bo'lajak illyustrator rassom doim izlanishda. Yaqinda O'zbekiston Badiiy akademiyasi ta'asis etgan **Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasining** sohibi bo'lgani ham bejiz emas.

Sahifamizda Erkin Vohidovning mashhur asarlaridan biri – “**Matmusa-niq qishlog'i**” hajviyasiga ishlangan turkum suratlarini havola etyapmiz. Suratlarida Asliddinxo'ja quyidagi jarayonlarni tasvirlagan: Matmusa antenna muammosi sabab SMS yuborish uchun telefonni osmonga otadi, biroq telefonni ushloq qoladi va yerga tushib parcha-parcha bo'lib ketadi. Bundan jahli chiqqan Matmusa balandlik ixtiro qiladi. Qishloqdagi telefon sinishlar bartaraf etilib, Matmusaning ishidan qishloqdagilar mamnun bo'ladi.

E'LO

2013-yil 17-iyunda Parkent transport va servis kasb-hunar kolleji tomonidan Ilhomova Fotima Sultonboy qiziga berilgan K № 3149458 raqamli kasb-hunar kolleji diplomi yo'qolganligi sababli BEKOR QILINADI.

**YOSHLAR
OVOZI**

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 18-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tahrir va saqlanadi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma: G-955, Adadi – 10525. Boshiga topshirish vaqti – 21.00. Topshirishi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6